O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA MATEMATIKA FAKULTETI

«Axborot texnologiyalari» kafedrasi

S.A.TISHLIKOV

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR VA ULARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI

fanidan

Laboratoriya mashg’ulotlarni bajarish bo’yicha

USLUBIY KO’RSATMA

GULISTON -2018

S.A.Tishlikov, Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma – Guliston davlat universiteti, 2018 y.

Ushbu uslubiy ko`rsatma «5110700 – Informatika o`qitish metodikasi» yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan kunduzgi bo'lim talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, «Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyasi» fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha barcha yo'riqnomalar hamda laboratoriya ish variantlarini o'z ichiga olgan.

Uslubiy ko'rsatmadan, «Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyasi» fanini o'rganayotgan talabalar, magistrlar foydalanishi mumkin.

Taqrizchi: Abdurahimov D.B. – GulDU, «Axborot texnologiyalari» kafedrasi mudiri, p.f.nomzodi

.

Uslubiy ko'rsatma Guliston davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2018 yil ___- _____ № ____ qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-uslubiy kengash raisi:_____

MUNDARIJA

KIRISH 4

I. Laboratoriya mashg’ulotni tashkil etishning shakli va mazmuni.....5

II. Talaba laboratoriya mashg’ulotining maqsad va vazifalari 6

III. Talaba laboratoriya mashg’ulotining tashkiliy shakllari 7

IV. Talaba laboratoriya mashg’ulotining axborot ta'minoti. 7

V. Talabalar laboratoriya mashg’ulotini nazorat qilish va baholash. 8

LABORATORIYA MASHG’ULOT №1. 10

LABORATORIYA MASHG’ULOT №2. 10

LABORATORIYA MASHG’ULOT №3. 16

LABORATORIYA MASHG’ULOT №4. 16

LABORATORIYA MASHG’ULOT №5 25

LABORATORIYA MASHG’ULOT №6 25

LABORATORIYA MASHG’ULOT №7 25

LABORATORIYA MASHG’ULOT №8 26

LABORATORIYA MASHG’ULOT №8. 27

LABORATORIYA MASHG’ULOT №9 32

LABORATORIYA MASHG’ULOT №10 32

LABORATORIYA MASHG’ULOT №11. 35

LABORATORIYA MASHG’ULOT №12. 35

LABORATORIYA MASHG`ULOTI №13. 40

LABORATORIYA MASHG`ULOTI №14. 48

LABORATORIYA MASHG`ULOTI №15. 61

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI 65

KIRISH

«Ta’lim to’g’risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»da barkamol shaxs tarbiyasi davlat ahamiyatiga molik muhim masala, usivor yo’nalish sifatida belgilandi. Bu maqsadga erishishning samarali vositalaridan biri «o’qitishning ilg’or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o’quv jarayoniga joriy etish»dan iborat.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalda joriy etish yillarida respublikamiz ta’lim tizimida qator muhim o’zgarishlar yuz berdi. Bu o’zgarishlar ko’p jihatdan ta’lim berishning an’anaviy sur’ati va yangi bilimlarning muntazam ortib borishi tendensiyasi o’rtasidagi jiddiy ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan bog’liq. Bu ziddiyatni hal etish maqsadida innovasion texnologiyalarni qo’llashga asoslangan ta’lim shakllaridan foydalanila boshlandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko’rsatib o’tilganidek, «ta’lim jarayoni barcha darajada kompyuterlashtiriladi va axborotlashtiriladi, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari bazasida ta’lim jarayonining axborot ta’minoti rivojlantiriladi». [1].

Talabaning laboratoriya mashg’uloti nima - Talabaning laboratoriya mashg’uloti o‘quv vazifasini dars berayotgan o‘qituvchisidan tizimli ravishda uzoqlashgan xolda laboratoriya bajaradigan ish turi xisoblanadi. Bunday ish turiga nazora va kurs ishi, referatlar, esse, dokladlar va boshq. kiradi.

Laboratoriya mashg’uloti asosi talabalarga barcha oliy o’quv yurtlarida ta’lim shakllarini yetkazib berishga asoslangan. Talabalar laboratoriya mashg’uloti tashkil etish, o’qituvchi talabalarga kerak bo’lgan ma’ruzalarning materiallarini beradi va ularni o’zlari laboratoriya ish materiallari bilan to’ldirilshi kerak. Shuni takidlash kerakki, talabalarning laboratoriya mashg’uloti ijobiy natijalar beradi agar, u maqsadli, tizimli va aniq rejalashtirilgan bo’lsa.

Bunda talabaning laboratoriya mashg’ulotining o’ziga hosligi shunda bo’lish kerakki talaba o’zi laboratoriya mashg’ulotda yangi bilimlar olsin. Bundan shunday hulosaga kelishimiz mumkin:

Talabaning laboratoriya mashg’uloti —bu turli hil individual yoki guruhli vazifalarni o’qitish usullaridan foydalangan holda bajariladigan amaliy dars (seminar, praktikum) bo’lib, bunda talabalar yangi bilimlarini, yoki oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi.

Talabaning laboratoriya mashg’uloti ikki hildagisi farqlanadi: oliygohda o’qishda dars vaqtida va yozma fazifalar shakildagisi.

Talabaning laboratoriya mashg’ulotini tashkillashtirish uchta yo’nalishda bo’ladi:

- maqsadni, dasturni yoki ish rejani aniqlashtirish;

- o’qituvchi tamonidan talabaga materillarni o’rganishda, kurs ishi, referat va diplom ishlarini yozishda o’rganiladigan adabiyotlarni tanlashda yordam beriladi;
- o’zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish, ishni amalga oshirishini, intizomni nazorat qilish va baholash bo’yicha ko’nikmalar olish.

Har bir laboratoriya mashg’uloti topshirig’i quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

- Mashg‘ulotning mavzusi.
- Mashg‘ulotning maqsadi.
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar.
- Topshiriqning mazmuni.
- Topshiriqni bajarish algoritmi.
- Topshiriqni bajarish dasturi.
- Topshiriq natijasi.

Talabalar laboratoriya mashg’uloti topshiriqlarni bajarish bilan birga, topshiriqlarni bajarilishi bo‘yicha hisobot yozib borishlari va bu hisobotlarni nazorat o‘tkazish davrigacha topshirishlari lozim.

I. Laboratoriya mashg’ulotni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Talaba laboratoriya mashg’uloti ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

Talaba laboratoriya mashg’ulotini ishini tashkil etishda «Pedagogik dasturiy vositalar vapedagogik web dizayn» fanining xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o’zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni turli xil o’quv adabiyotlari yordamida laboratoriya o’zlashtirish, berilgan mavzu bo’yicha referat tayyorlash, seminar va laboratoriya mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish, kurs ishini bajarish, bitiruv malakaviy ishini tayyorlash, anjumanlarga ma’ruza tezislarni tayyorlash, ilmiy jamiyatlar va tugaraklarda ishtirok etish, kafedralarning ilmiy ishlarida ishtirok etish va hokazolar.

Laboratoriya mashg’ulotini uchun namunaviy mavzular: Ishonchlilikning asosiy ko’rsatkichlari va ular orasidagi bog’lanishlar, buzulishlar fizikasi, turli xildagi elementlarning ishonchliligi, tashkiliy qismlar ishonchliligi, ishonchlilikni hisoblash usullari, foydalanish sharoitlari, sinash turlari, mahsulot sonini tanlash va

sinashning davomiyligi, foydalanish natijalariga qarab elektron maxsulotni ishonchliligini aniklash, ishonchlilikni iqtisodiy masalalari.

Dasturiy majmualarni tarkibiy loyihalashtirishning umumiy tamoyillari. Real vaqtda ishlaydigan ishonchli dasturlar majmuasini yaratishning asosiy muammolari. Dastur yaratish vositalari va usullari. Dastur to'plamlarining arxitekturasini nazorat vositalari va usullari Dastrurlaning birlamchi matnlarining statistik ko'rsatgichlarini nazorati va baholash. Dasturlaning statistik ishonchliligini nazorat vositalari va usullari. Dastur majmualarini kuzatishda tarkibiy yondoshish. Dastur majmualarini yaratish jarayonini nazorat qilish va boshqarishning umumiy tamoyillari.

II. Talaba laboratoriya mashg'ulotining maqsad va vazifalari

2.1. Talaba laboratoriya mashg'ulotining asosiy maqsadi o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini amaliy ravishda bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talaba laboratoriya mashg'ulotining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Pedagogik dasturiy vositalar va pedagogik web dizayn fanidan qo'lga kiritilayotgan yangi bilimlarni amaliy ko'nikma tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Pedagogik dasturiy vositalar va pedagogik web dizayn faniga doir kerakli ma'lumotlarni izlab topish, materialni tahlil qilishning qulay usul vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlari va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'ida yoritilib borilayotgan Islom dini asoslari va ma'naviyati yangiliklaridan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqni ratsional echimini belgilash;
- Pedagogik dasturiy vositalar va pedagogik web dizayn fanidan ma'lumotlar bazasini tashkil etish;
- laboratoriya mashg'ulotida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- talaba tomonidan ishlab chiqilgan g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

III. Talaba laboratoriya mashg’ulotining tashkiliy shakllari

3.1. Talaba laboratoriya mashg’ulotini tashkil etishda Pedagogik dasturiy vositalar va pedagogik web dizayn fani xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akdemik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida amaliy bilimlarni o'zlashtirish;

-berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

-laboratoriya mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

-seminar mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko'rish;

-malakaviy bitiruv ishini tayyorlash;

-nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

-amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;

-ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba laboratoriya ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

3.2. O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba laboratoriya ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

3.3. Talaba laboratoriya ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan

bo'yicha tegishli kafedralarda laboratoriya ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va fakul'tet ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

3.4. Laboratoriya ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talablarga zaruriy metodik qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

3.5. Har bir kafedra huzuridagi uslubiy ishlar bayoni tashkil etiladi.

IV. Talaba laboratoriya mashg’ulotining axborot ta'minoti.

4.1. Talaba uchun muayyan fan bo'yicha laboratoriya mashg’uloti topshiriqlari tegishli kafedra professori (yoki yetakchi dotsenti) tomonidan o'quv mashg’ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabalarga berilgan laboratoriya

mashg’uloti topshiriqlarini bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar qayd etiladi.

4.2. laboratoriya mashg’ulotini bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar Internet tarmog’idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

4.3. Kafedra mudiri va tegishli fakul'tet dekani taqdimnomasi asosida Oliy ta'lim muassasasi rahbariyati talabalarga laboratoriya ishlari bajarish uchun zarur axborot va vositalarini belgilaydi, talabalarga turli kutubxonalar, muzeylar, tarixiy joylar, arxivlar, tarmoq muassasalari va korxonalaridan laboratoriya ish uchun zaruriy ma'lumotlar to'plash yuzasidan so'rovnoma xatlarini rasmiylashtirib boradi.

4.4.Institut rahbariyati tomonidan talabalarga laboratoriya ishlari o'z vaqtida bajarish uchun kompyuter texnikasi va internet tarmog’idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilib beriladi.

V. Talabalar laboratoriya mashg’ulotini nazorat qilish va baholash.

5.1. Talaba laboratoriya ishini nazorat qilish o'quv mashg’ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

5.2. Talabaning laboratoriya mashg’uloti, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi.

5.3. Talaba laboratoriya mashg’ulotini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari kafedra tomonidan belgilanadi hamda fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Laboratoriya ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestr) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

5.4. Laboratoriya mashg’uloti bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballining 55% dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

5.5. Fanlar kesimida talabalarning laboratoriya mashg’uloti bo'yicha o'zlashtirishlari muntazam ravishda akademik guruhlarda, kafedra yig’ilishlari va fakul'tet Ilmiy kengashlarida muhokama etib boriladi.

LABORATORIYA MASHG'ULOT №1.

Mavzu: PowerPoint paketi yordamida taqdimot shaklida multimediya o'quv ilovalar yaratish.

TOPSHIRIQLARI:

1.**Topshiriq №1**. PowerPointda animatsiya yaratish.
2. **Topshiriq №2.** PowerPointda Jadval joylashtirish.
3. **Topshiriq №3.** PowerPointda Vidieo joylash.
4. **Topshiriq №4.** PowerPointda Rasm joylash.
5. **Topshiriq №5.** PowerPointda Matn tagida rasm joylash.
6. **Topshiriq №6.** PowerPointda Vidieoni qirqib olish.
7. **Topshiriq №7.** PowerPointda Sonlarning ketma-ket kelib chiqish.
8. **Topshiriq №8.** PowerPointda GiperSilka joylashtirish.
9. **Topshiriq №9.** PowerPointda Ovoz joylashtirish.
10. **Topshiriq №10.** PowerPointda Matematik formullalarni kiritish
11. **Topshiriq №11.** PowerPointda diktafon bilan ishlash

LABORATORIYA MASHG'ULOT №2.

Mavzu: PowerPoint paketi yordamidataqdimot shaklida multimediya o'quv ilovalar yaratish.

TOPSHIRIQLAR:

12. **Topshiriq №12.** PowerPointda guruhingiz haqidagi ma'lumotlarni rasmlar orqali yoritib bering
13. **Topshiriq №13.** Paint dasturida yaratilgan rasmlarni PowerPointda ketma ket animatsiya shaklida joylashtiring
14. **Topshiriq №14.** PowerPoint dasturiga kara jadvalini joylashtiring
15. **Topshiriq №15.** PowerPointda Videoga zastafka rasm joylash.
16. **Topshiriq №16.** PowerPoint dasturida lotin alifbosini animatsiyali ko'rinishda hosil qiling
17. **Topshiriq №17.** PowerPoint dasturida tayyorlangan ma'lumotlarni video ko'rinishida saqlang.
18. Topshiriq №18. PowerPoint dasturi yordamida MS Access haqida ma'lumot berib o'tamiz;
19. Topshiriq № 19. Multimediyali ma'ruzalar uchun interaktiv taqdimotlar yaratish;

LABORATORIYA MASHG’ULOT №2

Mavzu: PowerPoint paketi yordamidataqdimot shaklida multimediya o’quv ilovalar yaratish.

Ishning maqsadi: PowerPoint dasturi yordamida taqdimotli pedagogik dasturiy vositalar yaratish.

Topshiriq № 19. Multimediyali ma’ruzalar uchun interaktiv taqdimotlar yaratish

Ishni bajarish tartibi:

Ishni bajarish tartibi:

1. PowerPoint oynasini ochamiz

Puskdan -> Microsoft Offic-> Microsoft PowerPoint.



1. 1-rasm. PowerPoint oynasini ochish.



2-rasm.PowerPoint oynasi

2. PowerPoint oynasining yuqori qismidan “дизайн” bo’limidan slayd fomini o’zgartiramiz.



3-rasm. “дизайн” bo’limi oynasi.

3. “Вставка” bo’limining “фигуры” bandidan birorta shaklni tanlab olamiz.



4-rasm. shakl qo’yish.

Matn kiritish uchun 5-rasmda ko’rsatilgan sohaga sichqoncha tugmasini bosamiz va kerakli ma’lumotni klaviatura yordamida kiritamiz.



5-rasm Matn kiritish sohasi.

“Главная” bo’limidan “создать слайд” bandiga sichqoncha tugmasini bosamiz va ikkinchi slaydni ochib mavzu nomi va rejani kiritamiz.(6-rasm).



6-rasm.1-slayd.

Tuzilgan reja asosida ma’lumotlar kiritib boriladi. Taqdimotni tayyorlab bo’lgach kiritilgan rejalarning hammasiga sichqonchaning chap tarafini belgilab olingan reja ustiga bosib “гиперссылка” bo’limiga kiramiz.



7-rasm.

“гиперссылка” bo’limiga kirganda “местом в документе” bo’limiga kiramiz 8-rasm) va kerakli slayd ni ko’rsatamiz.



7-8-rasm. “гиперссылка” qo’yish jarayoni.

Slaydlarga Access dasturidangi forma yoki jadval ko’rinishini rasm shaklida joylashtirish mumkin. Buning uchun Access dasturi oynasi ochiladi va klavituraning yuqori qismida joylashgan “PrtSc SysRq” klavishi bir marta bosiladi va kerakli slayd ustiga sichqoncha tugmasi 1 marta bosilib Ctrl+V bosiladi (9-rasm).



9-rasm.Slaydlarga rasm joylashtirish.

Slaydlarga ovoz yoki video roliklarini joylashtirish uchun “Вставка” bo’limidan “мультимедиа” bandiga kiramiz.



10-rasm. ovoz qo'yish bo'limi.



11-rasm. ovoz yozish bo'limi.

Fayl menyusidan сохранить как bo’limidan saqlash mumkin.



12-rasm. Saqlash jarayoni.

Bu jarayonni davom ettiramiz.





Natijada ma’ruza uchun taqdimotni tayyor holatga keltiramiz.

LABORATORIYA MASHG'ULOT №3.

MAVZU. **PowerPoint+iSpring paketi yordamidataqdimot shaklida multimediya o'quv ilovalar yaratish.**

TOPSHIRIQLARI:

1. **Topshiriq №1.** Ispring dasturidan foydalanib elekrton kitob yarating.
2. **Topshiriq № 2**. Multimedia vositalari ro'yxati, rasmi joylashtirilgan kitobni ispring dasturidan foydalanib yarating
3. **Topshiriq № 3.** Informatika fanini asos qilib 10 min ga mo'ljallangan test joylashtiring.
4. **Topshiriq № 4.** Ispring dasturida tuzilgan testni *swf ,*doc va *html formatlarida saqlang.
5. **Topshiriq № 5.** Ispring dasturida rasm asosida test tuzing
6. **Topshiriq №** 6. Ispring dasturida fanga oid moslik testini tuzing.
7. **Topshiriq №7.** Faningizga oid bir nechta to'g'ri javobga asoslangan test tuzing.

LABORATORIYA MASHG'ULOT №4.

MAVZU. **PowerPoint+iSpring paketi yordamidataqdimot shaklida multimediya o'quv ilovalar yaratish.**

TOPSHIRIQLARI:

8. **Topshiriq №8.** 3D kitobga laboratoriya ishlaringizni joylashtiring.
9. **Topshiriq № 9**. Birorta fanni tanlang va uni asosida test tuzib vaqtini belgilang.
10. **Topshiriq № 10.** 10 jildli kitob hosil qiling va uni turli fonlar berib boyiting.
11. **Topshiriq № 11**. Multimediyali ma'ruza uchun 3d kitob va interaktiv testlar yaratish.

LABORATORIYA MASHG’ULOT №4.

Mavzu: PowerPoint+iSpring paketi yordamidataqdimot shaklida multimediya o’quv ilovalar yaratish.

Ishning maqsadi: PowerPointda va iSpring yordamida taqdimotli pedagogik dasturiy vositalar yaratish va test dasturlarini xosil qilishdan iborat

Topshiriq № 11. Multimediyali ma’ruza uchun 3d kitob va interaktiv testlar yaratish

Ishni bajarish tartibi:

Ispring dasturida elektron kitob yaratish uchun ispring Kinetics oynasini ochamiz va **3D Book** bandini tanlaymiz

1-rasm ispring Kinetics oynasi.

3D Book tanlangandan so’ng quyidagi oyna ochiladi.



2-rasm.

2-rasmda ko’rsatilgan kitob muqovasini o’zgartirish mumkin. Buning uchun yuqoida ko’rsatilgan ikkita menyu bor **Book va Help** undan Book menyusiga kiramiz va **Moore**ni tanlaymiz



3-rasm. Kitob muqovasini o’zgartirish.

Endi kitob sahifalarini matn bilan boyitish kerak. Matn kiritish uchun **Book** menyusidan **text** bandini tanlaymiz. sahifa ustiga sichqoncha tugmasini bosib yozish belgisini hosil qilamiz. Sichqonchani bosib turib yozish kengligini belgilab olamiz. Belgilab olingan sohaga matnni klaviatura orqali kiritamiz yoki ko’chirib olib kelamiz. Kiritilgan matnni fonini shaklini hajmini intervalini o’zgartirish kabi amallarni bajarish mumkin.



4-rasm. Matn kiritish

Kitobga rasm joylashtirish mumkin. Book menyusidan

ni tanlab rasm chaqirish mumkin.



5-rasm Rasm joylashtirish.

Barcha ma’lumotlar joylashtirib bo’lingach tanlanib saqlash jarayoni amalga oshiriladi.



6-rasm.saqlash 1-jarayon.

Publish bandi tanlanadi va keying oyna hosil qilinadi



7-rasm Saqlash 2-jarayon.

Saqlash jarayonida saqlash manzili ko’rsatilib nom beriladi va saqlash tugmasi bosiladi.

Ispring dasturining yana bir muhum vazifasidan biri bu test hosil qilishdir.

Bu dasturda tuzilgan test qulayligi beriladigan savollarni ishlayotgan foydalanuvchi javobni darhol olishi va uni tahlil qilishi mumkkin. Ispring dasturida 10 xil ko’rinishdagi testlarni hosil qilish mumkin. Bu dasturda test tuzish uchun quyidagi oyna ochiladi.



2.1-rasm. Ispring Quiz Maker oynasining ko'rinishi.

Bu oynaning yuqori qismida belgilangan sohani tanlaymiz. 2-oyna hosil bo'ladi.



2.2-rasm.

Dastur ikkita menyudan tashkil topgan. **Main, Help. Main** menyusidan o'zimizni savolimizga to'g'ri keladigan test shaklini tanlab olamiz. Misol uchun:



2.3-rasm.

3.1-rasmda ko’rsatilgan test shakli bir nechta variantdan tashlil topgan bo’lishi mumkin va bitta javobga asoslangan. Har bir to’g’ri javob variantiga belgi qo’yiladi.



2.4-rasm

Savollarga variant qo’shish uchun chap qismida joylashgan **Add Choise** tugmasi bosiladi.



Bir nechta javoblarni tanlashga to’g’ri keladigan holatlarda quyidagini tanlaymiz.



2.5-rasm.Bir necha javobga asoslangan test.

Test tuzib ko’rsatilayotgan oyna o’ng qismida audio, video va rasm uchun joy ham mavjud. agar joylashtirilayotgan savollar rasm, video va ovozli fayllarga mo’ljallangan bo’lsa ulardan foydalanish mumkin.

To’g’risini tanlash asosida tuziladigan testlar uchun



2.6-rasm.Tuzib bo’lingan testni saqlash jarayoni.

Yuqorida ko’rsatilgan belgini bosib Publish oynasi ochiladi.



2.7-rasm. Saqlash jarayoni.

Publish bandi tanlangandan so’ng saqlashning 4 xil usuli klo’rsatiladi.



2.8-rasm.

Saqlash usuli tanlanadi, saqlash manzili ko’rsatiladi va ok tugmasi bosilib jarayon yakumlanadi.

LABORATORIYA MASHG'ULOT №5

MAVZU: Macromediya Flash dasturi yordamida ma'ruzalar uchun multimediyali ilovalar yaratish.

TOPSHIRIQLAR:

1. **Topshiriq №1.** Oy va yulduzlar rasmini qatlamlardan foydalanib chizish.
2. **Topshiriq №2.** Yo'l kesishmasi rasmini chizish.
3. **Topshiriq №3.** Gullar buketi rasmini chizish.
4. **Topshiriq №4.** Xotira qurilmalari rasmini chizish.
5. **Topshiriq №5.** Shaxsiy kompyuter rasmini chizish.
6. **Topshiriq №6.** Zamburug'lar rasmini chizish.
7. **Topshiriq №7.** Uy rasmini chizish.
8. **Topshiriq №8.** Devor soati rasmini chizish.
9. **Topshiriq №9.** Tabiat manzarasi rasmini chizish.
10. **Topshiriq №10.** Shaxmat doskasi rasmini chizish.

LABORATORIYA MASHG'ULOT №6

MAVZU: Macromediya Flash dasturi yordamida ma'ruzalar uchun multimediyali ilovalar yaratish.

TOPSHIRIQLAR:

11. **Topshiriq №11.** G'ishtli devor rasmini chizish.
12. **Topshiriq №12.** Svetofor rasmini chizish.
13. **Topshiriq №13.** Sport to'pi rasmini chizish.
14. **Topshiriq №14.** Windows piktogrammasi rasmini chizish.
15. **Topshiriq №15.** Qor parchasi rasmini chizish.
16. **Topshiriq №16.** Qor parchasi yog'ishi.
17. **Topshiriq №17.** 2 dona svetofor yonishi.
18. **Topshiriq №18.** Bayramlar tablosi.
19. **Topshiriq №19.** Avtomashina harakatlanishi.
20. **Topshiriq №20.** Gul ochilishi.

LABORATORIYA MASHG'ULOT №7

MAVZU: Macromediya Flash dasturi yordamida ma'ruzalar uchun multimediyali ilovalar yaratish.

TOPSHIRIQLAR:

21. **Topshiriq №21.** Raqamli va matnli soat.
22. **Topshiriq №22.** Shashka o'yini.

23. **Topshiriq №23.** Shaxmat donalarining yurishi.
24. **Topshiriq №24.** Daraxt bargi to'kilishi.
25. **Topshiriq №25.** Yomg'ir yog'ishi.
26. **Topshiriq №26.** Devor soati.
27. **Topshiriq №27.** Kara jadvali.
28. **Topshiriq №28.** Kun va tun almashishi.
29. **Topshiriq №29.** Fasl almashishi.
30. **Topshiriq №30.** G'ishtli devor terish.
31. **Topshiriq №31.** Guruh familiyalarini ismga o'zgartirish(Shape animasiya).
32. **Topshiriq №32.** 3 ta geometrik shakl o'zgarishi(Shape animasiya).
33. **Topshiriq№33.** 2 ta doira berilgan trayektoriya bo'yicha haraatlanish(Motion animasiya).

LABORATORIYA MASHG'ULOT №8

MAVZU: Macromediya Flash dasturi yordamida ma'ruzalar uchun multimediyali ilovalar yaratish.

TOPSHIRIQLAR:

34. **Topshiriq №34.** Avtomobil trayektoriyasi(Motion animasiya).
35. **Topshiriq №35.** Matematik mayatnik(Motion animasiya).
36. **Topshiriq №36.** Odamni harakatlanishi(Motion animasiya).
37. **Topshiriq №37.** Shakl almashishi(Shape animasiya).
38. **Topshiriq №38.** Qor parchasi trayektoriya(Motion animasiya).
39. **Topshiriq №39.** Barg to'kilishi(Motion animasiya).
40. **Topshiriq №40.** Sun'iy yo'ldosh(Motion animasiya).
41. **Topshiriq №41.** Jonivor harakati(Motion animasiya).
42. **Topshiriq №42.** Quyosh chiqishi botishi(Motion animasiya).
43. **Topshiriq №43.** Shaxmat figurularining harakati(Motion animasiya).
44. **Topshiriq №44.** Fanlar nomlari o'zgarishi lotin-kirillga(Shape animasiya).
45. **Topshiriq №45.** So'zlar o'zbekcha-inglizcha(Shape animasiya).
46. **Topshiriq№46.** Adobe flashda kadrli animatsiya bilan ishlash va daraxt rasimini chizish.

LABORATORIYA MASHG'ULOT №8.

MAVZU: Macromediya Flash dasturi yordamida ma'ruzalar uchun multimediyali ilovalar yaratish.

Ishning maqsadi: Macromediya dasturi yordamida ko'plab multimediya ilovalarini yaratish va Macromediya Flash dasturi bilan ishlash ko'nikmasini oshirish va ma'ruzalar uchun multimediyali o'quv kurslar yaratishdan iborat. Adobe Flashda animatsiyali roliklar bilan ishlash va kadrli animatsiyali roliklarni yatatish. Kadrlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakillantirish.

TOPSHIRIQ№46 MACROMEDIYA FLASHDA KADRLI ANIMATSIYA BILAN ISHLASH VA DARAXT RASIMINI CHIZISH.

Nazariy qism.

Macromedia Flash dasturda yaratilgan animatsiya fayllari to'liq siz tomoningizdan yaratiladi va animatsiyalashtiriladi. SHu bilan birgalikda bu dasturda aktiv elementlar bilan ishlash va dasturlash imkoniyatlari mavjud. Macromedia Flash dasturida kichik animatsiya fayllari (kliplar), Internet saxifalar, elektron qo'llanmalar va ... Flash dasturda yaratilgan fayllar o'zining original, ishlash soddaligi , yaratilish murakkabligi, tezkorligi, multimediya jixozlanganligi va xajm bo'yicha kichikligi bilan ko'zga tashlanishadi.

Animatsiya (Animatsiya - Animation) - Flash dasturning asosiy xarakatlari. Animatsiya 2 xil bo'ladi: kadrli (pokadrovoe sozdanie) va avtomatik(avtomaticheskoe sozdanie promejutochnых kadrov). Kadrli animatsiya faqat boshqaruv kadrlardan iborat buo'adi.

Kadr (Frames - Kadr) - Flash va ko'pkina animatsion muxarrirlar xamda video montaj dasturlar asosida kadrlar ketma ketligi joylashgan. Kadrni siz o'zingiz chizib yaratishingiz yoki dastur uni o'zi avtomatik yaratishi mumkin. Kadrlar ichida boshkaruv kadr (keyframes - klyuchevoy kadr) tushunchasi mavjud bo'lib, u xarakat traektoriyasining nuqtalarini belgilaydi. Avtomatik yaratilgan kadrlar esa ikki xil bo'ladi: shakllar geometriyasini o'zgarishi (shape tweening) yoki boshqaruv kadrlar o'zgarishi (motion tweening) asosida yaratilgan kadrlar .

Kadrlar ustidan bajariladigan asosiy amallar

F7 yoki Vstavka menyusida Vstavit pustoy klyuchevoy kadr (Insert blank keyfrme) - aktiv qatlamda yangi bo'sh boshqaruv kadr yaratish.

F6 yoki Vstavka menyusida Klyuchevoy kadr (Insert keyframe) - aktiv qatlamda

keyingi boshqaruv kadrini yaratish Shift+F6 yoki Vstavka menyusida Ochistit klyuchevoy kadr (Clear keyframe) - aktiv tanlangan kadrini tozalash F5 yoki Vstavka menyusida Kadr (Insert frame) - aktiv ‘ bo’sh kadrini yaratish Shift+F5 yoki Vstavka menyusida Udalit kadr (Remove frames) - aktiv tanlangan . Kadirli animatsiya misolida mevali daraxt bargini to’kilishini ko’ramiz.

Ishni bajarish tartibi:

Macromedia Flash oynaini ochamiz va propartis bo’limining size bandidan ishchi soha o’lchamini tanlaymiz. Daraxt rasimini chizamiz.

Daraxt chizish uchun instrumentlar panelidan Pancil(qalam) ni tanlab colors bo’limidan rangni tanlaymiz (1-rasm.)

1-rasm.rang tanlash bo’limi.

Darat yonidan qalamni rangini o’zgartirib daraxt bargini rasmini chizamiz.



2-rasm.

Daraxt bargini chizib bo’lgach uni instrumentlar panelida joylashgan Transform asbobi yordamida Alt tugmasini bosib turgan holda aylana belgisi chiqqandan keyin sichqoncha yordamida istalgan tomonga burish mumkin.



3-rasm.

Bir necha xil barg chizib olnadi va belgilab Ctrl+G tugmalarini birgalikda bosib Groupga olinadi va hosil qilingan burglar daraxtga joylashtirmiz.Bir nechta meva rasmini ham chizib joylashtiramiz

4-rasm.

Hosil bo'lgan daraxt atrofiga manzara chizamiz.



5-rasm.

Endi barg to'kilish jarayonini ko'ramiz. Belgilangan barg ustiga sichqoncha tugmasini bosib joyidan siljitamiz va klaviturada F6 tugmasi bosiladi yoki har bir kadr belgilanib Insert Keyfrem bandi tanlanadi.Bu jarayon barg yerga tushgunicha davom etadi. Bir nechta barg yerga tushib bo'lgach keying barg qatorida meva ham xuddi shu usulda yerga tushiriladi.



5-rasm. Barg va mevalarni to'kilishi.

Tayyor bo'lgan kadrli animatsiyani istalgan rasm yoki video ko'rinishda saqlash mumkin.

Buning uchun "File" bo'limidan "Export" bandini tanlaymiz.8-rasm.



6-a.rasm.



7.b-rasm. Rasmni saqlash.

Nom berib kerakli formatni ko’rsatib saqlash tugmasini bosamiz.

Xulosa.

Adobe Flashda kadrli animatsiyalar bilan ishlashni o’rgandim Flashda aftomatik va kadrli animatsiya bilan ishladim ko’nikma hosil qildim. Yaratilgan roliklarni har xil formatlarda saqladim. Ularni Import va Exsport qilib web sahifada joylashtirib ko’rdim.

Adabiyotlar.

1. Begimqulov U.Sh, Mamarajov M.E, Tursunov S.K. “Flash MX dasturi va undan ta’limda foydalanish imkoniyatlari” Toshkent 2006-yil
2. moodle.samtuit.uz
3. google.uz

LABORATORIYA MASHG'ULOT №9

Mavzu: Course Lab da Multimediyali o'quv kurslar yaratish.

TOPSHIRIQLAR.

1. **Topshiriq №1.** Course Lab da ma'ruzalar uchun taqdimotlar yaratish;
2. **Topshiriq №2.** Ma'ruzalar uchun glossary yaratish;
3. **Topshiriq №3.** Ovozli ma'lumotlani xosil qilish;
4. **Topshiriq №4.** Ma'ruzalar uchun interaktiv slaydlar yaratish;
5. **Topshiriq №5.** Elektron darslik uchun interfeys yaratish;
6. **Topshiriq №6.** Sahifalar uchun gipermurojat xosil qilish;
7. **Topshiriq №7.** Sahifada xarakatlanuvchi yozuvlarni xosil qilish;
8. **Topshiriq №8.** Elektron darslik uchun so'rovnomalar yaratish
9. **Topshiriq №9.** O'qitish natijalarini baholash uchun ochiq testlar yaratish;
10. **Topshiriq №10.** Bilimlarni baholash uchun testlar yaratish

LABORATORIYA MASHG'ULOT №10

Mavzu: Course Lab da Multimediyali o'quv kurslar yaratish.

TOPSHIRIQLAR.

11. **Topshiriq №11.** Mashq qildirgich so'rovnomalar yaratish;
12. **Topshiriq №12.** Multimediyali so'rovnomalar xosil qilish;
13. **Topshiriq №13.** Sahifalarda gipermediyani xosil qilish;
14. **Topshiriq №14.** O'quv kurslar uchun shablonlar yaratish;
15. **Topshiriq №15.** Dars jarayoni uchun virtual laboratoriya yaratish;
16. **Topshiriq №16.** O'rgatuvchi tizimni xosil qilish;
17. **Topshiriq №17.** Interaktiv so'rovnomalar yaratish;

LABORATORIYA MASHG'ULOT №4.

Mavzu: Course Lab da Multimediyali o'quv kurslar yaratish.

Elektron o'quv kurs redaktori

Boshlang'ich shartlar

- **Dasturdan foydalanish uchun talab qilinadigan bilim:** Kompyuterda ishlashning boshlang'ich ko'nikmalari, Microsoft Windows®tizimi, fayllar bilan ishlash, klaviatura va sichqonchadan foydalanish. Shuningdek, sabr toqat kerak bo'ladi.
- *CourseLab redaktori uchun tashqi obyekt sifatida qaraladigan grafik fayllar, videofayllar va audiofayllar bilan ishlash alohida ko'rib chiqilishi mumkin*

Tizimga qo'yiladigan talablar

CourseLab elektron o'quv kurs redaktori quyidagi minimal konfigurasiyaga ega bo'lishi kerak:

- *operasion tizim Microsoft® Windows® 2000/XP/2003*
- *Internet-brauzer Internet Explorer 6.0 va undan keyingi versiyalari*
- *Qattiq diskda 50MB bo'sh joy*
- *elektron kalit uchun 1 ta USB port*

CourseLab yordamida tayyorlangan o'quv modullarini namoyish qilish uchun kerakli kompyuter konfigurasiyasi:

- operasion tizim Microsoft® Windows® 98, Me, NT 4.0, 2000, XP, 2003 (Microsoft® Windows® 95 * ayrim chegaralanishlar bilan) yoki Linux;
- Internet-brauzer Internet Explorer® 5.0 yoki keyingilari (5.5 va keyingi versiyalar), Mozilla FireFox 1.0 yoki keyingilari, Netscape 7.2 yoki keyingilari;
- Brauzerda JavaScript ishlashiga ruxsat berilgan bo'lishi kerak;
- Brauzerda XML (Internet Explorer uchun Microsoft® XML Parser 3.0 versiyasi va keyingilari tavsiya etiladi).

CourseLab 2.1. haqida umumiy ma'lumotlar

CourseLab – foydalanishi sodda va ayni paytda imkoniyatlari keng dasturiy vosita bo'lib, Internet tarmog'ida, masofadan o'qitish tizimida, kompakt-diskda,

umuman ixtiyoriy informasiya saqlagichda interaktiv o'quv materiallarini (elektron kurs), yaratishga mo'ljallangan.

CourseLabning ahamiyatli tomonlari:

- WYSIWYG (**W**hat **Y**ou **S**ee **I**s **W**hat **Y**ou **G**et) muhitida o'quv materiallarini yaratish va tahrirlash.
- Foydalanuvchidan HTML tili yoki biror dasturlash tilini bilish talab etilmaydi.
- Obyektga yo'naltirilgan yondashuv – go'yoki bolalar kubiklari singari ixtiyoriy murakkablikdagi o'quv materiallarini yig'ish imkonini beradi.
- Ssenariylardan foydalanish ko'pobyektli murakkab o'quv materiallarini yig'ishni osonlashtiradi.
- Test tuzish mexanizmining mavjudligi.
- Obyekt interfeysining ochiqligi obyektlar bibliotekasini kengaytirish yoki yangi shablonlarni yarashga imkon yaratadi.
- Obyektlar animasiyasi mexanizmining mavjudligi.
- Rich-media obektlarini kiritish – Macromedia® Flash®, Shockwave®, Java®, turli formatdagi video va audio va hokazo.
- Microsoft® PowerPoint® formatidagi faylni import qilish.
- Ekranni zaxvat qilish mexanizmi.
- Sodda harakatlar algoritmini kiritish imkoniyati.
- Tajribali foydalanuvchilar uchun JavaScript yordamida obyektlar xossalarini o'zgartirish imkoniyati.
- Elektron o'quv kurslari ishlashi uchun Java® ning bo'lishi shart emas.

Xalqaro standartlarga mosligi

CourseLab yordamida yaratilgan o'quv kurslari quyidagi standartlarga mos bo'ladi:

- AICC (http://www.aicc.org/)
- SCORM 1.2 (http://www.adlnet.org/)
- SCORM 2004 (SCORM 1.3)
  (http://www.adlnet.org/)

Elektron o'quv kursi, bu nima?

- **Elektron o'quv kursi** – *bu muallif tomonidan strukturalashtirilgan, mazmunan tugallangan va o'quvchiga Internet yoki biror elektron saqlagich orqali yetkaziladigan o'quv materiali.*

LABORATORIYA MASHG'ULOT №11.

Mavzu: AUTOPLAY yordamida ma'ruzalar uchun multimediyali ilovalar yaratish.

TOPSHIRIQLAR:

1. **Topshiriq №1**. AutoPlay dasturida laboratoriya ishlaringizni natijasi bilan birgalikda joylashtiring
2. **Topshiriq №2.** Guruhingiz haqidagi ma'lumotlarni dasturga joylashtiring
3. **Topshiriq №3.** AutoPlay dasturidan foydalanib fanning majmuasini yarating.
4. **Topshiriq №4.** AutoPlay dasturidan foydalanib multimediali majmua yarating
5. **Topshiriq №5.** AutoPlay dasturida video o'quv kursini yarating
6. **Topshiriq №6.** AutoPlay dasturidan foydalanib taqdimot yarating
7. **Topshiriq №7.** AutoPlay dasturida test tuzing
8. **Topshiriq №8.** AutoPlay dasturidan foydalanib multimedia vositalari bilan tanishtiradigan o'quv qo'llanma yarating
9. **Topshiriq №9.** AutoPlay dasturidan foydalanib excel video kursini yarating

LABORATORIYA MASHG'ULOT №12.

Mavzu: AUTOPLAY yordamida ma'ruzalar uchun multimediyali ilovalar yaratish.

TOPSHIRIQLARI:

10. **Topshiriq №10.** AutoPlay dasturidan foydalanib web dasturlash fanidan laboratoriya ishlarini joylashtiring.
11. **Topshiriq №11.** AutoPlay dasturidan foydalanib photoshop dasturi haqidagi ma'lumotlarni joylashtiring
12. **Topshiriq №12.** AutoPlay dasturidan foydalanib " Inovatsion texnologiyalar " mavzusida taqdimot yarating
13. **Topshiriq №13.** AutoPlay dasturidan foydalanib Kompyuter qurilmalari mavzusida slayd shou yarating.

14. **Topshiriq №14.** AutoPlay muxitida elektron o'quv uslubiy majmuani yaratish.

LABORATORIYA ISHI №11.

Mavzu: AUTOPLAY yordamida ma’ruzalar uchun multimediyali ilovalar yaratish.

Ishning maqsadi: AutoPlay dasturi bilan ishlash ko’nikmasini oshirish va ma’ruzalar uchun multimediyali o’quv kurslar yaratishdan iborat.

Masalaning qo’yilishi: AutoPlay muxitida elektron o’quv uslubiy majmuani yaratish.

Ishning bajarish tartibi: Auto Play Media Studio dasturini “Пуск” tugmasi orqali ishga tushirganimizda ekranda quyidagi jarayonlar ketma-ketligini ko’rishimiz mumkin.



1-rasm Auto Play dasturining ishga tushish jarayoni.

Dasturda biror loyiha yaratishimiz uchun “Создать новый проект” bo’limini tanlaymiz.

2-rasm “Создать новый проект” bo’limi.

Yangi loyiha oynasini tanlaganimizda bizga yaratilayotgan elektiron qo’llanmamizning shablon ko’rinishi hosil bo’ladi.



3-rasm shablon ko'rinishi.

Hosil bo'lgan shablonimizni tashqi ko'rinishini hosil qilamiz. Biz bunga istalgan ko'rinishimizni berishimiz mumkin.

4-rasm tashqi interfeys ko'rinishi.



Page2 ga birinchi laboratoriya ishini PDF faylini joylashtiramiz. Bu faylni joylashtirayotgan vaqtda butun oyna bo'yicha joylashishiga e'tibor berish kerak.



5-rasm PDF faylini joylashtirish jarayoni

PDF faylini sahifada ko'rinishi quyidagicha bo'ladi.

6-rasm Auto Playda PDF ko'rinishi.

Birinchi laboratoriyani taqdimot ko'rinishini PDF ko'rinishida kiritilgan jarayoni.



7-rasm Adobe photoshop dasturida qilingan ishni Auto Playda kiritish jarayoni.

Hosil bo'lgan "Page" larni bir – biriga bog'lash uchun "Проект" menyusinig "настройки" bandidan "Сценарий" qismiga kiramiz va ushbu kodni Page.Jump("Page2"); ("Page2")ini kerakli nomerga o'zgartiramiz.



8-rasm Page larni bir-biriga bog'lash jarayoni.

LABORATORIYA MASHG`ULOTI №13.

Mavzu: Camtasia Studio dasturi yordamida o'quv multimedia maxsulotlarini ishlab chiqish.

1. TOPSHIRIQ № 1. Camtasia studio dasturi haqida ma`lumot bering.
2. TOPSHIRIQ № 2. Camtasia studio dasturi imkoniyatlari
3. TOPSHIRIQ № 3. Camtasia studio dasturida 5 minutlik video darslik tayyorlash.

Ishning maqsadi: Camtasia Studio dasturi bilan ishlash o'quv multimedia maxsulotlarini ishlab chiqish va ko'nikma hosil qilish**.**

Nazariy qism: Camtasia Studio dasturi **TechSmith** kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, dastur kompyuter ishchi stolidagi barcha jarayonlarni tasvirga tushirishga mo'ljallangan. Dastur ishchi stoldagi barcha harakatlarni shu jumladan sichqoncha harakatini ham tasvirga tushiradi.

Bu dastur nafaqat ekrandagi jarayonlarni tasvirga tushirishga, balki sifatli videofayl tayyorlashga, veb kameradan tasvirlarni tushirishga, ovozli izohlar va titrlar qo'shishga mo'ljallangan. Bundan tashqari dastur tayyor videoyozuvlardan yuklanuvchichi exe formatidagi videolarni ham tayyorlashi mumkin.

Camtasia Studio dasturining imkoniyatlari:

- Monitor ekranidagi va veb kameradagi tasvirlarni hamda mikrofondagi ovozlarni yozib olish
- Turli vizual effektlar joylashtirish
- Ovozli fayllarni tahrirlash
- Tayyorlanayotgan loyihani ldindan eshitish yoki ko'rish
- Videoni masshtablash rejimi
- Videofayllarni qirqish, bo'laklash, qo'shish va o'chirish
- Tayyor videofaylni turli videoformatlarda saqlash
- Videorolikni namoyish qilish uchun universal asboblar
- Oddiy va tushunarli interfeys.

Camtasia Studio dasturi mualliflari videoni siqish uchun maxsus TechSmith Screen Capture Codec (TSCC) kodekni taklif qiladi, bu kodek videoni chiqish jarayonida tasvirlar va ovozlarni sifatini yaxshi saqlaydi. Kodek algoritmi tizimga ortiqcha yuklama bermaydi. Shuning uchun ham bu kodekdan foydalanish uchun juda yuqori konfegurasiyali kompyuterlar talab etilmaydi, ya'ni Windows XP

operasion tizimi, Microsoft DirectX 8.1 va undan yuqori, mikroprosessor chastotasi 500 MHz va 64 megabayt tezkor xotira. Camtasia Studio o'zida to'rtta utilit dasturni jamlagan: Camtasia MenuMaker, Camtasia Player, Camtasia Theater va Camtasia Recorder. Bu utilitalarning barchasi bilan dasturning bosh oynasi ishlashga mo'ljallangan(1-rasm).

1-rasm.

Camtasia Player Bu utilita yagona vazifani bajaradi, ya'ni TSCC kodekda siqilgan AVI formatidagi videoni namoyish qiladi.

Camtasia Recorder Dasturning asosiy utilitasi - Camtasia Recorder. Bu dastur kompyuter ekranidagi tasvirni va joriy ovozlarni tasivrga tushirishga va yozib olishga mo'ljallangan. Tasvirga olish jarayonidan ekranning yuqori burchagiga muallatflik huquqi yoki shunga o'xshash biror belgini doimiy saqlab quyish imkoniyati mavjud. Dasturda yozib olingan faylni AVI, SWF, FLV, MOV, WMV, RM, GIF, CAMV formatlardan biriga eksport qilish imkoniyati ham mavjud. Ekranni tasvir tushirishni quyidagi rasmdagi *rec* tugmachasini bosishdan boshlaymiz va asirga olish jarayoni tugagandan so'ng esa F10 tugmasini bosamiz va tasvirga olishni tugatamiz.

Camtasia MenuMaker Videodars tayyor bo'lgandan so'ng uni kompakt diskka yozish mumkin. Bunda fayllarni qanday maqsadlarda tayyorlanginligi va nimaga yo'naltirilganligiga qarab diskning tashqi tarafiga grafik qobiq yasashga to'g'ri keladi. Bu qobiq o'rgatuvchi videodarslarning mazmunin yoritishga xizmat qiladi.Buning uchun maxsus Camtasia MenuMaker utilitidan foydalanamiz.

Camtasia Theater Camtasia Theater utilitasi bir nechta vileofayllar bilan ishlovchi menyu yaratishga mo'ljallangan, ya'ni darsliklar soni ko'p bo'lsa foydalanuvchi videl faylga qarab o'ziga kerakli darsni tanlashi qulay bo'lishi uchun. Buning uchun faqat SWF formatidagi fayllardan foydalaniladi.

Ishni bajarish tartibi:

Pusk menyusi yoki ekrandagi yorliqqa sichqoncha tugmasini ikki marta bosishamiz va ekranda 1-rasm hosil bo'ladi.(a,b-rasm)



1-a.rasm.

1-a. rasmda belgilangan sohaga sichqoncha tugmasini bosamiz 1-b rasm hosil bo'ladi.

1-b. rasm.Dasturni ishga tushirish jarayoni.

Dasturni ishga tushirishdan oldin 1-b.rasmning yuqori qismida ko'rsatilgan "Effects" bo'limidan "options" bandini tanlaymiz va hosil bolgan oynadan cursor bo'limini tanlab 2- rasmda ko'rsatilgan belgilashlarni amalga ishiramiz.



2-rasm. Effect Options bo'limi oynasi.

2-rasmdagi belgilashlarni amalga oshirib bo'lgach "Effects" bo'limidan "Cursor" bandini tanlab chap va o'ng tugmalar ekranda bosilganda rang hosil qilishi uchun 3-rasmdgi belgilashlarni amalga oshiramiz.



3-rasm.Sichqoncha tugmasiga effect tanlash.

Barcha belgilashlarni amalga oshirib bo'lgach 1-b.rasmda ko'rsatilgan "rec" tugmasini bosamiz va ekrandagi harakatni tasvirga olish boshlanadi.

Tasvirni to'xtatish uchun F10 tugmasi bosiladi.Oynada 4-rasm hosil bo'ladi.



4-rasm.

Hosil bo’lgan oynadan saqlash tugmasini bosamiz 5-rasm hosil bo’ladi.



5-rasm. Saqlash jarayoni.

Faylni saqlayotgan vaqtimizda 5-rasmda ko’rsatilgan sohada dasturning o’zini *camrec va *avi formatlari ko’rsatilgan ulardan keraklisini tanlab nom beramiz va saqlash tugmasini bosamiz. Ekranda 6-rasm hosil bo’ladi.



6-rasm.

6-rasmda hosil bo'lgan ekranga tayyorlanayotgan rolik o'lchamini kiritib OK tugmasi bosiladi. Avval saqlangan faylga qo'shimcha effect berish uchun "File" menyusidan Open project bandi tanlanadi va saqlangan fayl chaqiriladi. Oynada saqlangan fayl paydo bo'ladi faylni sichqoncha yordamida chap tarafdagi ekran ustiga olib kelib qo'yamiz va effect berishni boshlaymiz.

Faylga effect berish uchun 7-rasmda ko'rsatilgan menyular bor.

7-rasm.

Ko'rsatilayotgan soha aniqroq bo'lishi uchun Zoom-n-Pan bo'limidan tasvirni yaqinlashtiramiz.



11-Zoom-n-Pan yaqinlashtirish jarayoni.

Kerakli soha ko'rsatib bo'lingach Zoom-n-Pan bo'limidan tasvir yana joyiga qaytariladi. Librariy- bo'limidan har xil ovozli animatsiyalar qo'shish mumkin.



8-rasm.Librariy bo'limi.

Text qo'shish uchun Callouts-bo'limidan kerakli sohani belgilab kiritish mumkin.



9-rasm. Callouts bo'limi.

Auio bo'limida ovozli fayllarni kiritish ularni qirqish mumkin.11-rasm.



10-rasm.Audio bo'limi.

Tayyor bo'lgan video faylni saqlash uchun oynaning yuqori qismida ko'rsatilgan "Produce" and share bo'limiga bosamiz 11-rasm hosil bo'ladi.



11-rasm.Production wizard oynasi.

Kerakli format tanlanib “Готов” tugmasi bosiladi.13-rasm hosil bo’ladi.



13-rasm.

Faylga nom berilib saqlash manzili ko’rsatiladi va “готово” tugmasi bosiladi.

Xulosa.

Men Camtasia studiosida dasturida ishlashni o’rgandim. Bu dasturda kompyuter ekranida sodir bo’layotgan jarayonlarni tasvirga tushirib bu tasvirlarga effect berdim. Bu dastur bilan mustaqil shug’illanishni va dars jarayonida bu dasturdan va dastur yordamida olingan tasvirlardan dars jarayonida foydalanishni o’rgandim va ishlash ko’nikmalarini hosil qildim.

LABORATORIYA MASHG`ULOTI №14.

Mavzu: Moodle platformasi yordamida individual elektron o'quv kurslar yaratish.

Ishninh maqsadi: Moodle masofaviy ta'lim tizimining strukturali sxemasini tuzishni, o'qitish jarayonini nazorat qilishni va test orqali o'rgatishni tashkillashtirish hamda shu tizim yordamida mavjud test vositalarini loyihalashtirish va yaratishdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni yechish kerak:

- Moodle masofaviy ta'lim tizimi asoslarini o'rganish;
- Moodle tizimida o'qitish jarayonini nazorat qilishni va test orqali o'rgatishni tashkillashtirish imkoniyatlarini o'rganish;
- Moodle tizimida "Pedagogik dasturiy vositalar va pedagogik web dizayn" o'quv kursida test vositalarini loyihalashtirish va yaratish ;

Ishni bajarish tartibi:

MOODLE TIZIMIDA TEST VOSITALARINI YARATISH VA FOYDALANISH TAVSIFI

1. Fan sahifasiga mavzular bo'yicha testlarni kiritish

Masofaviy ta'lim natijalarini nazorat qilishning asosiy vositasi test hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi Moodle tizimida test yaratish va uni elektron kurslarga qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. **Moodle tizimida o'quv kurslari uchun testlash vositalarini yaratish** uchun biz Toshkent axborotlar texnologiyalari universiteti "Axborot texnologiyalarining dasturiy ta'minoti" kafedrasi tomonidan ishlab chiqarilgan, ochiq kodli Moodle platformasida yaratilgan "TATUSF virtual ta'lim tizimi" saytidagi "Pedagogik veb dizayn" kursidan foydalandik[7,25].

Moodle da ixtiyoriy testlar Savollar banki (maxsus ma'lumotlar bazasi) asosida yaratiladi. Ya'ni testni yaratishdan oldin ma'lumotlar bankini shu test uchun zarur savollar bilan to'ldirish kerak bo'ladi.

Moodle da testli savollar banki va test tushunchalari ajratilgan. Testli savollar banki berilgan kursning barcha savollaridan tashkil topadi, katta hajmli savollarni tartiblash va boshqarishga ruxsat beradi, boshqa kurslardagi kategoriyalarda mavjud savollarga ruxsatli kirish imkonini beradi. Test talaba

bevosita ishlaydigan element hisoblanadi va aniq testli topshiriqlardan tashkil topadi.

Testli savollar bankiga ruxsatli kirishni Boshqarish blokining Savollar punktidan ham, aniq testni tahrirlash interfeysidan ham olish mumkin. Boshqarish blokidagi Savollar tugmasini tanlang:



moodle.samtuit.uz da fan oynasininh sozlash bo'limi

Savollarni tahrirlash oynasi ochiladi:



Test savollarini tahrirlash oynasi

Savollar bankidagi savollar kategoriyalar bo'yicha tartiblangan. Jimlik qoidasiga ko'ra, har bir kurs uchun alohida kategoriya yaratiladi, bundan tashqari kurslarning umumiy kategoriyalari bilan mos tushuvchi kategoriyalar ham mavjud.

Xohishga ko’ra, qo’shimcha kategoriyalarni yaratish mumkin (Kategoriya vkladkasi). Savolni yaratishdan oldin shu savol tegishli kategoriyani tanlash yoki uni yaratish kerak [25].

Hozir esa biz testni qanday qilib, kursga yuklash to’g’risida so’z yuritamiz. Buning uchun biz quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim bo’ladi, **1-ma’ruza bo’yicha test topshiriqlarini** tanlaymiz va shundan keyin quyidagi oyna ochiladi:



Test natijalari sahifasi



Belgilangan test savollarini ko’rib chiqsh oynasi

Natijalar oynasi kurs talabalarining testdan olgan ballarini ko’rsatadi,

Ko’rish tugmasi orqali testni ko’rishimiz mumkin:

Tahrirlash tugmasi testda kerakli o’zgartirishlar kiritish uchun ishlatiladi. Buning uchun testni tahrirlash oynasida kerakli o’zgartirishlar kiritiladi va barchasini saqlab kursga qaytiladi:



Test savollarini tahrirlash oynasi

Testga yangi savollar kiritilib, ular saqlangandan keyin quyidagi oyna ochiladi:



Savollar bankiga yangi test savolini qo’shish oynasi

Bu yerda ham ↑↓✕ tugmalari bor, bu tugmalar testni ko’rish, tahrirlash, boshqa joyga o’tkazish uchun ishlatiladi. Kerakli testlar tanlangandan keyin,

ularni 

Testni qo’shish tugmasi orqali test savollari ro’yxatiga qo’shishimiz mumkin bo’ladi. Natijada quyidagi ro’yxat hosil bo’ladi:



Test savollarini tartiblash oynasi

Testdagi savollar **navbatini** ikonkasini bosib, o’zgartirish mumkin. Ular berilgan savollarni boshqasiga bog’liq holda yuqoriga yoki quyiga almashtiradi. Savollar aynan shu ketma-ketlikda beriladi (agar testda **Savollarning tasodifiy ketma-ketligi** qo’shilmagan bo’lsa).

Testga qo’shilgan har bir savol uchun quyidagilar tasvirlanadi: **Savol nomi**, uning **Tipi** (piktogramma ko’rinishida), **Baho** – shu testning boshqa savollariga nisbatan berilgan savol og’irligi hamda savolni tahrirlashni boshlash (parametrlar sahifasini ochish), testdan berilgan savolni olib tashlashga ruxsat beradigan ikonkalar.

2. Testdan foydalanish va testni natijalarini tahlili

Kursda test kurs elementi sifatida kiritilgan bo’lib, testning bir necha tiplari mavjud. Biz bu ishda har bir test tipidan foydalanishni ko’rib chiqamiz.



Test savollarini turini tanlash

Ko'p uchraydigan tanlash tipida test yaratish natijasida quyidagiga ega bo'lamiz [7]:



Bu tipdagi testda berilgan savolga javoblardan birini tanlaymiz.

Qisqa javob tipli savolli test yaratish jarayonida quyidagiga ega bo'lamiz:



Qisqa javob tipli savollarni yaratishda savollar oddiy tartibda kiritiladi. Chunki bu yerda talaba javoblarning mumkin bo'lgan variantlarini ko'rmaydi va mavjud variantlardan birini tanlamaydi, balki o'zi javobni kiritishi kerak. Har doim talabalar tomonidan kiritilgan to'g'ri javob sinonimlarini, boshqa tugallanmali, boshqa kelishikli va sh.o'. to'g'ri javobni yozish imkoniyati borligini hisobga oling.

Alternativ (to'g'ri/noto'g'ri) tipli test quyidagi ko'rinishga ega:

Talaba savolga javobni “To’g’ri” va “Noto’g’ri” orasidan tanlaydi (e’tibor bering, “Noto’g’ri” ham to’g’ri javob bo’lishi mumkin – savolni tahrirlashda tanalanadi).

Javoblarning turli variantlari uchun o’qituvchining taqrizi bo’lishi mumkin, talaba ularning birini o’zi tanlagan javobdan keyin ko’radi.

Mos keluvchi savollar ko’rinishi quyidagicha bo’ladi:



O’qituvchi savollar ro’yxatini va ularga javoblarni beradi. Talaba savol va unga mos javobning to’g’ri mosligini topishi kerak.

Talaba testdagi barcha savollarga javob berib bo’lgandan keyin, quyidagi tugmalardan birini bosishi kerak.



Saqlash, ammo jo’natmaslik tugmasi testdagi javoblarni saqlab qoladi, ammo javoblar variantlarini administratorga yubormaydi.

Sahifani jo’natish tugmasi to’g’ri javoblarni admintstratorga yuborishga ruxsat beradi, bu yerda test tugatilmagan hisoblanadi va talaba ixtiyoriy vaqtda test javoblarini o’zgartirishi mumkin bo’ladi.

Hammasini jo’natish va testni tugatish tugmasi bosilsa, test javoblari adminstratorga jo’natiladi va test tugatiladi. Bunda talaba endi o’z javoblarini o’zgartirish imkoniyatiga ega bo’lmaydi. Bu tugma bosilgandan keyin quyidagi oyna ochiladi:

Тест начат	Friday, 6 June 2014, 07:47
Состояние	Завершено
Завершен	Friday, 6 June 2014, 07:48
Прошло времени	15 сек.
Баллов	1,00/3,00
Оценка	**3,33** из 10,00 (33%)

Вопрос 1
Неверно
Баллов: 0,00 от максимума 1,00
Отметить вопрос
Редактировать вопрос

http - бу...

Выберите один ответ:
- a. Гиперматнни узатиш протоколи
- b. ИНтернет фазосида юқори даражали манзил домени ✗
- c. Сайт сақланадиган сервер номи
- d. Ҳақиқий IP адресли DNS ном

Bu yerda talabaning test topshiriqlariga bergan natijalar beriladi: testning boshlanish va tugash vaqti, bali, bahosi. Bundan tashqari u nechta savolga to'g'ri va nechtasiga noto'g'ri javob berganligi maxsus belgichalar bilan ko'rsatiladi, bu esa talabani o'z ustida yana ishlashiga ko'mak beradi.

Отчет об оценках

Имя / Фамилия		Kompyuter tizimlari va ...					
		1-амалий ...	2-маъруза ...	2-амалий ...	3 - маъруза ...	3-амалий ...	4-маъруза ...
Quwat Daribaev	Grades for Quwat Daribaev	-	-	-	-	-	-
Nargiza Hasanova	Grades for Nargiza Hasanova	-	-	-	-	-	5,00
Odina Imomova	Grades for Odina Imomova	-	-	-	-	-	-
Baxtiyor Rustamov	Grades for Baxtiyor Rustamov	-	-	-	-	-	-
Husniddin Sotvoldiyev	Grades for Husniddin Sotvoldiyev	-	-	-	-	-	-
Фирдавс Акилов	Grades for Фирдавс Акилов	-	-	-	-	-	-
Абдирасул Абдулахатович Холмурзаев	Grades for Абдирасул Абдулахатович Холмурзаев	-	-	-	-	-	-
	Общее среднее	-	-	-	-	-	5,00

Test topshirganlar ro'yxati

Savollar ro'yxatining pastida testda qatnashuvchi barcha savollar uchun **Jami – Yig'indi ballar** va **Maksimal baho** – agar talaba testning barcha savollariga to'g'ri javob berganda talaba yig'adigan ballar soni. Boshqa hollarda ballar soni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi [13]:

$$\frac{\sum_{i=1}^{n} p_i v_i}{\sum_{i=1}^{n} v_i} \cdot M \quad ,$$

qayerdaki p_i - i-nchi savolga javoblar to'g'riligi o'lchami (p_i =1, agar javob to'g'ri bo'lsa; p_i =0, agar xato bo'lsa, 0< p_i <1, agar javob qisman to'g'ri bo'lsa), v_i – i-chi savol og'irligi, M – maksimal baho, n – testdagi savollarning maksimal soni.

Test tarkibi bilan ishlayotganda o’qituvchi ixtiyoriy vaqtda testda o’zi kiritgan savollar qanday ko’rinishda ekanligini ko’rishi uchun **Ko’rish** vkladkasiga o’tishi mumkin. U yerda savolga javob kiritish va **Natijalarni jo’natish va testni tugatish** tugmasini bosib, ular qanday baholanishini ko’rish mumkin. Javoblarni kiritishni **Boshqatdan boshlash** tugmasini bosib, takrorlash mumkin.

Muqaddima vkladkasi test savollari ro’yxati ustida talabalar tomonidan tasvirlanadigan va odatga ko’ra, ular uchun qisqa atmalardan iborat testni ko’rishga ruxsat beradi.

Test natijalarini ko’rish uchun o’qituvchi test nomiga bosadi, keyin esa **Natijalar** vkladkasini tanlaydi.

Bundan to’rtta havola paydo bo’ladi:



- **Ko’rish** – testdan o’tkazilgan talabalarning natijalarini ko’rish uchun xizmat qiladi.
- **Oshirib baho qo’yish** – agar test parametrlariga talabalar test topshirib bo’lgandan keyin o’zgartirishlar kiritgan bo’lsa, o’qituvchi testga oshirib baho qo’yishi mumkin.
- **Qo’lda baholash** – o’qituvchi shaxsan o’zi test savollariga javoblarni baholashi lozim bo’lgan hollarda ishlatiladi (Esse tipli javoblarda).
- **Savollarning tahlili** – o’qituvchiga test savollarini tahlil etishga va har bir test savolini yechgan, ya’ni fanning mos bo’limlarini o’zlashtirgan talabalarning foizini aniqlashga ruxsat beradi.

O’qituvchi talabalarning test natijalarini Ko’rish tugmasini bosib ko’rishi mumkin:



Foydalanuvchining test natijalari haqida ma’lumot

Berilgan jadvallarni qiymatlari bo’yicha ixtiyoriy ustunda saralash mumkin:

- talabaning familiyasi va ismi,
- urinishni bajarishni boshlash sanasi va vaqti,
- unga sarf qilingan vaqt,
- yig’ilgan ballar soni,
- testning har bir savoli uchun javoblar bahosi.

Buning uchun mos ustun nomiga bosish kerak. Saralashning tanlangan usuli mos . strelkalari bilan tasvirlanadi.

Ustunlarni ikonkalarini bosib, yuqoriga chiqarish va yoyish mumkin.

Jadvalda kul rang bilan tasvirlanadigan ma’lumotlar havola bilan hisoblanadi. Bu havolalarga bosib, quyidagilarni ko’rish mumkin:

- talabaning shaxsiy ma’lumotlari,
- bajarilgan ixtiyoriy urinishlarning barcha javoblari,
- ixtiyoriy urinishdagi aniq savolga javob.

O’qituvchi jadvalning yoniga belgini qo’yib, jadvalning keraksiz satrlarini o’chirishi va **Tanlangan** ro’yxat-menyudan **O’chirish** ni tanlashi kerak [7].

Jadval ostida quyidagilarni ko’rsatish mumkin: bitta sahifada tasvirlanadigan hamda har bir savolga baholarni tasvirlaydigan urinishlar soni. O’qituvchi berilgan testni bajarmagan talabalar ro’yxatini chiqarishi mumkin.

Bu oynada talabaning ismi va sharifi, testning boshlanish va tugash vaqti, test topshirishga keygan vaqti, olgan bahosi. Har bir savol uchun derilgan va yig’ilgan ballari, bundan tashqari test natijalarini bosmaga chiqarish uchun qo’llanikadigan format turlari keltirilgan.

Agar Excel formatida yuklash tugamasi bosilsa, test natijasi quyidagi ko’rinishda chiqariladi:

A1 fx Название

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L
1	Название	ест нача	авершен	ченное в	Оценка/10	#1	#2	#3	#4	#5	#6	#7
2	Nargiza Ha	2 Июнь 20	2 Июнь 20	37 сек	4,29	1,43	1,43	0	0	0	0	1,43
3												

Agar matnli formatida yuklash tugamasi bosilsa, test natijasi quyidagi ko’rinishda chiqariladi:

Файл Правка Вид Настройки Справка

Название	Тест начат	Завершено	Затраченное время	Оценка/10	#1	#2	#3	#4	#5	#6	#7
Nargiza Hasanova	2 Июнь 2011, 13:21	2 Июнь 2011, 13:22	37 сек	4.29	1.43	1.43	0	0	0	0	1.43

Oshirib baho qo’yish tugamasini bosib, quyidagilarni ko’ramiz:

Результаты Просмотр Редактировать

Просмотр Переоценить Оценивание вручную Анализ вопросов

Просмотреть оценки за все

Переоценивание теста "4-маъруза бўйича тест топшириқлари"

Попытки, которые изменяются после переоценивания, отображаются как гиперссылки на окно просмотра вопроса

Переоценивание "Флин классификацияси нимага асосланади?". Попытки: #2211 #2212

Переоценивание "SISD синфидаги машиналарда қандай буйруқлар ишлатилади?". Попытки: #2211 #2212

Переоценивание "Флин архитектураси 2 та синфга ажратилади". Попытки: #2211 #2212

Переоценивание "Ҳар бири алоҳида буйруқлар ва маълумотлар оқими билан ишловчи ва ягона комплексни ташкил этувчи бир қанча қурилмалардан иборат синфни кўрсатинг.". Попытки: #2211 #2212

Qo’lda baholash oynasining ko’rinishi quyidagicha bo’ladi, bizning holimizda u bo’sh, chunki esse tipli savol ishlatilmagan:



Savollarning tahlili oynasini ochib, biz quyidagi fanning mos bo'limlarini o'zlashtirgan talabalarning foizini aniqlashga ruxsat beradigan natijalar tahlili bilan tanishishimiz mumkin bo'ladi:



В.#	Текст вопроса	Текст ответа	Частичная оценка	Число ответов	% ответов	Индекс легкости	Ср.квадр. откл.	Индекс диффер.	Коэфф. диффер.
(2608)	Флин классификацияси нимага асосланади? : Флин классификацияси нимага асосланади?	оқим тушунчасига	(1,00)	1/2	(50%)	50%	0,707	1,00	0,50
		ахборот тушунчасига	(0,00)	1/2	(50%)				
		) тезлик тушунчасига	(0,00)	0/2	(0%)				
(2609)	SISD синфидаги машиналарда қандай буйруқлар ишлатилади? : SISD синфидаги машиналарда қандай буйруқлар ишлатилади?	битта оқимдаги	(1,00)	0/2	(0%)	0%	0,000	0,00	-999,00
		кўп оқимли	(0,00)	0/2	(0%)				
		кўп машинали	(0,00)	0/2	(0%)				
		оқимли маълумотлар	(0,00)	1/2	(50%)				
		маълумотлар оқими	(0,00)	1/2	(50%)				
(2610)	Флин архитектураси 2 та синфга ажратилади : Флин архитектураси 2 та синфга	Верно	(0,00)	0/2	(0%)	100%	0,000	0,00	-999,00

Jadval quyidagi ustunlarga ega:

В # (savol№). Bu yerda ma'lumotlar bazasiga o'tkazishda savolga o'zlashtiriladigan yagona nomer tasvirlanadi. Agar uni bossak, u holda shu savol parametrlarini tahrirlash sahifasi ochiladi. Nomer ostida ikkita piktogramma bor: bittasi savol tipini tasvirlaydi, ikkinchisi shu savolni alohida oynada ko'rishga ruxsat beradi.

Savolning nomi va matni. Yashil rang bilan savol nomi, qora bilan savol matni tasvirlanadi. Agar savolda rasmlar bo'lsa, ular ham shu jadvalda tasvirlanadi.

Javob matni. Bu yerda savolda ko'rib chiqilgan javoblar variantlari yoki talabalar tomonidan kiritilgan javoblar tasvirlanadi. To'g'ri va noto'g'ri javoblar rang bilan belgilanadi.

Javob bahosi o'qituvchi savol parametrlarida qanday aniqlagan bo'lsa, shunday kiritiladi.

Javoblar soni. Bu yerda kasr suratida talabalar tomonidan nechta urinishdan keyin javobning berilgan varianti kiritilganligi, kasr mahrajida esa – savolga javob berish uchun umumiy urinishlar soni ko'rsatiladi.

Javoblar foizi urinishlarning necha foizida talabalar tomonidan javobning shu varianti kiritilganligini ko'rsatadi.

To'g'ri javoblar foizi shu savolga talabalar tomonidan yig'ilgan ballar yig'indisining, talabalar shu savolga har doim to'g'ri javob berganda yig'ishi mumkin bo'lgan ballar yig'indisiga foizli munosabatini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichni yana **savollar osonligi indeksi** deb ham atashadi.

Standart og'ish. Bu ko'rsatkich turli talabalarning baholari o'zaro qancha farqlanishini baholaydi. Agar barcha talabalar shu savolga javob berib, bir xil ballar sonini yig'sa, u holda standart og'ish nolga teng bo'ladi. Standart og'ish baholar og'ishlari kvadratlari yig'indisidan bu baholar soniga bo'lingan, ularning o'rta qiymatlarining kvadrat ildizi kabi hisoblanadi.

LABORATORIYA MASHG`ULOTI №15.

Mavzu: Olingan bilimlarni nazorat qiluvchi dasturiy vositalar yaratish.

TOPSHIRIQLAR:

1. HotPotatoes6 dasturini o`rganish o'rganish;
2. HotPotatoes6 dasturida "Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish" o'quv kursida test vositalarini loyihalashtirish va yaratish.
3. HotPotatoes6 dasturi yordamida krasvord tuzish.
4. HotPotatoes6 dasturi dasturi yordamida test tuzish.

Ishninh maqsadi: «Informatika» kursini o`qitishning asosiy maqsadlaridan biri kompyuter texnikasi va texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, o`quv jarayonini faollashtirish, talabalar mehnatining natijaviyligi hamda samaradorligini oshirish.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni yechish kerak:

- HotPotatoes6 dasturini o`rganish o'rganish;
- HotPotatoes6 dasturida "Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish" o'quv kursida test vositalarini loyihalashtirish va yaratish ;

Ishni bajarish tartibi:

Biz ham bo`lajak informatika o`qituvchilari sifatida yuqoridagi barcha fikrlarni asosiy maqsad qilib olishimiz kerak. Zamonaviy dasturiy vositalar bilan ishlash va ular yordamida talabalar bilimlarini oshirish, nazorat qilish malakalariga ega bo`lib borishimiz lozim.

Bularni barchasini inobatga olgan holda biz bugun bir dasturiy vosita bo`lmish – "HotPotatoes6" dasturi yordamida talabalarga bilim berish, olgan ma`lumotlarini qay darajada o`zlashtirganliklarini nazorat va tahlil qilish usullarini hamda dastur imkoniyatlarini qisqacha yoritib berishga harakat qilaman. Demak, dastlab dastur imkoniyatlari haqida ma`lumot keltirsak.

"HotPotatoes6" (ing. "Qaynoq Kartoshkalar" deb nomlanadi.) dasturini ishga tushirganimizda uning asosiy oynasi ochiladi va bu oyna sarlavha satri, menyular satri hamda olti xil imkoniyatlarga ega bo`lgan bo`limlardan tashkil topgan. (1-rasm)

1-rasm

Aytaylik biz prezentatsiya ko`rinishida yangi bir mavzuni talabalarga ma`ruzasini kerakli qismini yozdirib, asosiy tushunchalarini ularga tushuntirib beraylik. Ularni bilim olish darajasi biz yaratgan prezentatsiyaning ko`rgazmalilik prinsiplari asosida hamda ham tinglab, ham ko`rib shu bilan birgalikda yozib borishlari yordamida oshib boradi. Endi biz talabalar olgan tushuncha, bilimlarini qay darajada egallab olganliklarini tekshirishimiz va nazorat qilish uchun kompyuter yordamida yaratilgan dasturiy vositalar orqali nazorat qilib olishimiz mumkin bo`ladi. Yuqoridagi dastur yordamida huddi shunday nazorat variantlarini tuzishimiz mumkin. Jumladan:

“JCloze” bo`limini olsak. Bu dastur bizga o`tilgan mavzu ma`ruzasi va undagi asosiy tushunchalarni qay darajada talabalar yodida saqlab qolganliklarini tekshirish imkonini beradi. (2-rasm).



2-rasm

Dastlab dasturning JCloze bo`limini ishga tushirib, uning asosiy oynasining “Имя” qatoriga mavzu nomini va asosiy maydonga mavzu ma`ruzasini yoki asosiy tushunchalarni kiritib olamiz. Yashirib qo`yish uchun berkitib qo`yilayotgan so`zni yoki jumlani belgilab, “Пробел” buyrug`i bosiladi. Hosil bo`lgan oynada berkitib qo`yilayotgan so`zga uni topish uchun yo`naltiruvchi so`z va turli shu so`zga yaqin to`g`ri javoblar kiritiladi. Yo`naltiruvchi so`z berkitilgan so`zni topishda talabaga ko`mak vazifasini bajaradi. Kalit so`zlar va to`g`ri keladigan javoblar kiritilib bo`lgach OK ni bosib oldingi oynaga qaytiladi. “Файл” menyusining “Создать вебстраницу” buyrug`ini yoki F6 tugmasini bosish orqali yaratgan boshqotirmani Web sahifa ko`rinishida saqlab olamiz. Nazorat topshirig`idagi yashiringan so`zni topish uchun so`roq tugmasini bosiladi va kalit so`zlar uni yechishda talabalarga yordam vazifasini bajaradi. “Check” tugmasini bosish orqali esa talabaning bu topshiriqda qanday natija olganligini protsentlar orqali o`zlashtirish darajasini natijasini olishimiz mumkin.

“JCross” bo`limida esa shu mavzusiga oid tushunchalar, ta`riflar, dastur imkoniyatlari va vazifalari qatoriga kiruvchi so`zlardan krossvord tuzishimiz hamda talabalarda taqdim etish orqali nazorat o`tkazishimiz mumkin. Buning uchun dasturni JCross bo`limini ishga tushiramiz. (3-rasm)



3-rasm

Krossvordni berkitilgan so`zlarini kiritish uchun esa rasmda ko`rsatilgan “Создать сетку...” tugmasi bosiladi va bu oyna yordamida mavzuga oid bo`lgan so`zlarni har birini alohida satrga ya`ni bir so`zni kiritgandan so`ng “Enter” tugmasini bosib, so`ng keyingi so`z kiritilishi davom ettiramiz. Yakunda “Создать сетку” buyrug`ini tanlaymiz.(4-rasm),



4-rasm

Yuqorida rasmda ko`rib turganingizday biz kiritgan so`zlardan dastur krossvord ko`rinishini avtomatik tarzda tuzib qo`ydi. (5-rasm)



5-rasm

Endi bizning vazifamiz ushbu krossvorddagi so`zlarga kalit so`zlar kiritish bo`ladi. Buning uchun “Определения” tugmasini bosamiz. U oynada har so`zni satr va ustun ko`rinishda tasvirlangan raqamlariga kalit so`zlar kiritib chiqamiz. Buning uchun shu so`zni ustida bir marta sichqoncha tugmasini bosamiz, ostida paydo bo`lgan kalit so`z kiritish maydoniga kalit so`zlarni kiritamiz va OK ni bosamiz. Shu tarzda har so`zga kalit so`zlar kiritilib boriladi.(6-rasm)



6-rasm

Barcha so`zlarga kalit so`zlar kiritilib bo`lgach oynaning ostki qismidagi OK ni bosiladi. Oynaning “Файл” menyusining “Создать вебстраницу” buyrug`ini yoki F6 tugmasini bosish orqali yaratgan krossvordimizni brouzer yordamida oynaga boshqotirma ko`rinishida taqdim etiladi.(7-rasm)



7-rasm

Uni yechish uchun raqam ustiga bir bosiladi va kalit so`z yordamida javob topiladi.

Qisqacha qilib aytganda qolgan nazorat usullsri ham huddi yuqoridagi kabi amalga oshiriladi.

“JQuiz” bo`limi yordamida nazorat turini TEST ko`rinishida;

“JMatch” bo`limi yordamida dars jarayonida qo`llash mumkin bo`lgan sinov – nazorat o`tkazish uchun yordam bera oladigan dasturiy vosita yaratishimiz mumkin. Bunda talaba tomonidan ikki qimga bo`lingan va bir – birini to`ldiruvchi tushunchalar yoki ta`riflarni ajratib, chalkashtirilgan ko`rinishida;

“JMix” bo`limi esa bizga ko`pincha fonetikaga oid fanlarda, ya`ni ona tili, rus tili, ingliz tili va shu kabi fanlarda ko`p samara bersa ajab emas. Chunki bu bo`lim yordamida biz bir butun gaplarni so`zlarini o`rni almashgan, ketma – ketligi buzilgan holda taqdim etishimiz va ularni ketma – ketligini talabalar to`g`rilab chiqishi lozimligini topshiriq qilib berishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish: 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng mihim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi VMning majlisidagi ma'ruza. –T.: O'zbekiston, 2013. -64 b
2. Jizzax politexnika instituti" elektroenergetika va fizika" kafedrasi" mexanika va molekulyar fizika" dan laboratoriya ta'lim darslarini o'tish uchun uslubiy ko'rsatma. Jizzax - 2012 yil
3. Компания "Открытые технологии". Статья "Преимущества MOODLE".
4. http://web.tma.uz/
5. www.infocom.uz.
6. www.dasturchi.uz.
7. www.ziyonet.uz.
8. www.etuit.uz.
9. www.edu.uz.
10. www.moodle.samtuit.uz.
11. www.Tami.uz